

O‘ZBEKISTONNING INNOVATSION KELAJAGI: IMKONIYATLAR VA ISTIQBOLLAR

Bahronova Shaxodat Baxshulloyevna

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti

bakhronovashakhodat@g.mail.com

Bozorov G‘ayrat O‘rinovich

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti

gayrat_1984@bk.ru

Annotatsiya: Ushbu maqola “O‘zbekistonning innovatsion kelajagi: imkoniyatlar va istiqbollar” mavzusiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda mamlakatning innovatsion salohiyati tahlil qilinadi. Mazkur ishda innovatsion infratuzilma, moliyalashtirish, kadrlar tayyorlash va huquqiy asoslarning hozirgi holati hamda istiqbollari haqida batafsil ma‘lumot beriladi. Shuningdek, innovatsiyalarni joriy etish orqali iqtisodiy o‘rishni ta‘minlash imkoniyatlari va amaliy takliflar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: *Innovatsiya, iqtisodiy rivojlanish, texnoparklar, innovatsion infratuzilma, moliyalashtirish, kadrlar tayyorlash, texnologik taraqqiyot.*

ИННОВАЦИОННОЕ БУДУЩЕЕ УЗБЕКИСТАНА: ВОЗМОЖНОСТИ И ПЕРСПЕКТИВЫ

Бахронова Шаходат Бахшуллоевна

Навоийский государственный горно-технологический университет

bakhronovashakhodat@g.mail.com

Бозоров Гайрат Уринович

Навоийский государственный горно-технологический университет

gayrat_1984@bk.ru

Аннотация: Данная статья посвящена теме “Инновационное будущее Узбекистана: возможности и перспективы”, в которой анализируется инновационный потенциал страны. В работе подробно рассматриваются текущее состояние инновационной инфраструктуры, финансирования, подготовки кадров и правовой базы, а также перспективы их развития. Кроме

того, предлагаются практические рекомендации по обеспечению экономического роста через внедрение инноваций.

Ключевые слова: *Инновация, экономическое развитие, технопарки, инновационная инфраструктура, финансирование, подготовка кадров, технологический прогресс.*

UZBEKISTAN'S INNOVATIVE FUTURE: OPPORTUNITIES AND PROSPECTS

Bahronova Shahodat Bakhshulloyevna

Navoi State University of Mining and Technology

bakhronovashakhodat@g.mail.com

Bozorov Gayrat Orinovich

Navoi State University of Mining and Technology

gayrat_1984@bk.ru

Abstract: This article focuses on the topic “The Innovative Future of Uzbekistan: Opportunities and Prospects” and analyzes the country's innovative potential. It provides detailed insights into the current state of innovative infrastructure, financing, human resource development, and legal frameworks, as well as their future prospects. Practical recommendations are also offered to ensure economic growth through the implementation of innovations.

Keywords: *Innovation, economic development, technoparks, innovative infrastructure, financing, human resource development, technological progress.*

KIRISH

Innovatsion faoliyat iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, uning raqobatbardoshligini oshirish hamda barqaror rivojlanishni ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda dunyo iqtisodiyoti texnologik innovatsiyalar asosida rivojlanmoqda va bu jarayonni kechiktirgan davlatlar global bozor talablari oldida zaif holatda qolmoqda. Shu sababli, O'zbekistonning milliy iqtisodiy strategiyasida innovatsiyalarni rivojlantirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan.

O'zbekiston Prezidenti tomonidan olib borilayotgan islohotlar, jumladan, “Innovatsion rivojlanish strategiyasi”ning qabul qilinishi, texnoparklar va ilmiy-tadqiqot markazlarining tashkil etilishi bu sohada sezilarli qadamlar bo'lmoqda. Mazkur islohotlar mamlakat iqtisodiyotining turli sohalarida yangi texnologiyalarni

joriy etishga imkoniyat yaratmoqda. Shu bilan birga, innovatsion faoliyatni rag'batlantirish uchun qulay muhit yaratish, moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish va malakali kadrlarni tayyorlash zarurati dolzarb masalalar sifatida ko'rib chiqilmoqda.

O'zbekiston o'z innovatsion salohiyatini namoyish etish uchun muhim resurslarga ega. Jumladan, mamlakatda boy ilmiy meros, tabiiy resurslarning keng ko'lamliligi va mehnat bozorida yosh, istiqbolli kadrlar mavjud. Shuningdek, global texnologik inqilobning ta'siri ostida mahalliy ishlab chiqarish korxonalarida texnologiyalarni modernizatsiya qilish zarurati oshib bormoqda. Ammo bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun mavjud muammolarni bartaraf etish talab qilinadi.

Innovatsion faoliyatni rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan asosiy muammolardan biri – bu moliyaviy va iqtisodiy resurslarning yetarli emasligi. Innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash uchun davlat va xususiy sektor o'rtasida samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish, ventur kapitalini rivojlantirish hamda startap loyihalarni moliyalashtirish uchun grant va kredit tizimlarini takomillashtirish talab etiladi. Shu bilan birga, texnologiyalarni joriy etishda xalqaro tajribadan foydalanish va xorijiy investitsiyalarni jalb etish muhim omil hisoblanadi.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatining samaradorligini oshirish uchun ilmiy markazlar va universitetlar bilan sanoat korxonalari o'rtasidagi aloqalarni kuchaytirish lozim. Bugungi kunda ko'plab mamlakatlarda "universitet-klaster" modeli muvaffaqiyatli amalda qo'llanilib, bu ilmiy tadqiqotlarning real ishlab chiqarishga joriy etilishini ta'minlamoqda. O'zbekistonda ham ushbu modelni rivojlantirish orqali texnologik yangiliklarning iqtisodiy samarasini oshirish imkoniyati mavjud.

Shu bilan birga, innovatsiyalarni rivojlantirish uchun malakali kadrlarni tayyorlash dolzarb ahamiyat kasb etadi. Mamlakatning ta'lim tizimida innovatsion yo'nalishdagi dasturlarni kengaytirish, xorijiy universitetlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish va yoshlarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga jalb qilish orqali intellektual kapitalni oshirish mumkin.

Mazkur maqola "O'zbekistonning innovatsion kelajagi: imkoniyatlar va istiqbollari" mavzusida bo'lib, unda mamlakatning innovatsion salohiyati tahlil qilinadi. Shu bilan birga, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha amaliy tavsiyalar beriladi.

Innovatsion infratuzilma, moliyalashtirish, kadrlar masalasi va huquqiy bazaning rivojlanishi bu yo'nalishda ko'rib chiqiladigan asosiy jihatlardir. Ushbu maqola O'zbekistonning innovatsion salohiyatini rivojlantirishga oid strategik yo'nalishlarni belgilashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

O'zbekistondagi innovatsion faoliyatni o'rganish bo'yicha bir qator mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarning ishlari mavjud. Xususan, iqtisodchi olimlar innovatsion texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy samarasini o'rganishgan, lekin ushbu jarayonni tizimli tahlil qilish va muammolarni chuqur o'rganish hali ham dolzarb hisoblanadi. Shuningdek, xalqaro tajriba O'zbekistonda qo'llash mumkin bo'lgan innovatsion boshqaruv modellarini ko'rsatib beradi.

Rustamjon Qosimov, Akmal Saidov, Joseph Schumpeter, Richard Nelson, Sidney Winter, Michael Porter, Chris Freeman, Peter Drucker, Carlota Perez, Lola Karimova, va Freeman Dysonning innovatsiyalar hamda iqtisodiy rivojlanish mavzusidagi asarlari o'rganib tahlil qilib chiqildi.

Rustamjon Qosimovning "Innovatsion taraqqiyot va uning iqtisodiy samarasi" asarida texnoparklar va startaplar orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash muhimligi ta'kidlangan [1]. Bu fikrni davom ettirib, Akmal Saidov "Innovatsion iqtisodiyot huquqiy asoslari" nomli kitobida innovatsion rivojlanish uchun huquqiy bazaning mustahkam bo'lishi zarurligini ko'rsatadi [2].

Joseph Schumpeter "The Theory of Economic Development" asarida innovatsiyalarni iqtisodiy rivojlanishning asosiy drayveri sifatida ko'rib chiqqan [3]. Bu yondashuv Richard Nelson va Sidney Winterning "An Evolutionary Theory of Economic Change" kitobida texnologik taraqqiyotning iqtisodiyotga ta'siri hamda innovatsion siyosatni rivojlantirish zarurati haqidagi fikrlar bilan uyg'unlashadi [4].

Michael Porter "The Competitive Advantage of Nations" asarida klaster tizimining iqtisodiy rivojlanishga ta'siri va innovatsiyalarni rag'batlantirish usullari haqida muhim tushunchalar beradi [5]. Bu fikrlarni davom ettirib, Chris Freeman "The Economics of Industrial Innovation" asarida innovatsion tizimlarning iqtisodiy rivojlanishga qo'shgan hissasini chuqur tahlil qiladi [6].

Peter Drucker "Innovation and Entrepreneurship" asarida innovatsiyalar tadbirkorlikning muvaffaqiyatli rivojlanishidagi roli haqida gapiradi [7]. Uning fikrlarini to'ldirgan holda, Carlota Perez "Technological Revolutions and Financial Capital" kitobida texnologik inqiloblarning iqtisodiy tsikllarga ta'sirini chuqur tahlil qiladi [8].

Bu fikrlar Freeman Dysonning "The Scientist as Rebel" asarida ilm-fan va texnologiyaning iqtisodiy rivojlanishga uzoq muddatli ta'siri haqidagi fikrlari bilan yakunlanadi [9].

Yuqoridagi asarlar innovatsion taraqqiyotning turli jihatlari – huquqiy asoslar, texnologik taraqqiyot, moliyalashtirish va klaster tizimlari orqali iqtisodiy barqarorlikka erishishning muhim yo'nalishlarini birlashtirgan holda, ilmiy asoslangan keng qamrovli tavsiyalarni taqdim etadi.

METODOLOGIYA

Markaziy Osiyo va rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda innovatsion tendensiyalar haqida mavjud adabiyotlar, bozor tahlillari va ilmiy maqolalarni tahlil qilib chiqildi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi O'zbekistonning innovatsion kelajagining rivoji uchun amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar va iqtisodiy samaradorlikni oshirish usullari hamda zamonaviy iqtisodiy tizimidagi ahamiyatini tahlil qilish, uni yanada rivojlantirish va shakllantirish yo'nalishlarini aniqlashdir. Mavzuni ilmiy o'rganish, statik tahlillar, mantiqiylik, tahlil va tadqiq etish jarayonida turli xil adabiyotlar va maqolalar tahlilidan foydalanilgan.

O'zbekistonning siyosati va innovatsion faoliyati mintaqaviy va global raqobatchilar bilan taqqoslanib tahlil qilindi va duch kelinishi mumkin bo'lgan muammolar hamda ularning yechimi o'rganildi.

Tadqiqot asosan shahar hududlari va asosiy sanoat tarmoqlariga qaratilgan bo'lib, qishloq joylardagi innovatsion jarayonlarni to'liq aks ettirilmagan.

Ushbu keng qamrovli metodologiya O'zbekistonning innovatsion salohiyatini tushunish va kelajakdagi o'sish uchun asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish uchun mustahkam poydevor yaratadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Innovatsion rivojlanish yo'lida bir qator qiyinchiliklar ham mavjud. Ushbu muammolarni hal qilishning bir nechta yo'llari mavjud.

Innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun yetarli darajada moliyaviy manbalar talab etiladi. Bu borada davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish zarur. Shu bilan birga, investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay muhit yaratish muhim ahamiyatga ega.

Innovatsion sohalarda yetarli malakaga ega mutaxassislar sonining kamligi muammosini hal qilish uchun ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va xalqaro standartlarga moslashtirish lozim. Bu esa yoshlar orasida texnologik bilimlarni oshirish va malakali ishchi kuchini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ba'zi sohalarda texnologik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmagani innovatsion loyihalarning samaradorligini pasaytiradi. Bu borada texnoparklar va ilmiy markazlarni rivojlantirish, shuningdek, mahalliy ishlab chiqarish salohiyatini oshirish zarur.

Respublikamiz hududlari bo'yicha o'z kuchi bilan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqargan korxona va tashkilotlar soni bo'yicha tahlili 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

2023-yilda hududlar bo'yicha o'z kuchi bilan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqargan korxona va tashkilotlar soni (birlik)¹

<i>Hudud</i>	<i>Jami (birlik)</i>	<i>Texnologik innovatsiyalar (birlik)</i>	<i>Marketing innovatsiyalari (birlik)</i>	<i>Tashkiliy innovatsiyalar (birlik)</i>
O'zbekiston Respublikasi	5026	4561	232	233
Qoraqalpog'iston Respublikasi	295	285	3	7
Andijon	271	266	1	4
Buxoro	426	415	7	4
Jizzax	219	213	4	2
Qashqadaryo	348	316	18	14
Navoiy	399	347	14	38
Namangan	116	108	7	1
Samarqand	376	328	22	26
Surxondaryo	420	408	6	6
Sirdaryo	110	100	4	6
Toshkent	434	372	38	24
Farg'ona	254	218	18	18
Xorazm	446	438	6	2
Toshkent shahri	912	747	84	81

2023-yilda hududlar bo'yicha o'z kuchi bilan innovatsion mahsulotlar, ishlar, va xizmatlar ishlab chiqargan korxona va tashkilotlar soni quyidagi jadvalda keltirilgan. O'zbekiston Respublikasi bo'yicha umumiy hisobda 5,026 ta innovatsion faoliyat olib boruvchi korxona va tashkilotlar mavjud bo'lib, shulardan 4,561 tasi texnologik innovatsiyalar, 232 tasi marketing innovatsiyalari, va 233 tasi tashkiliy innovatsiyalar bilan shug'ullanadi.

Hududlar kesimida Toshkent shahri eng yuqori natijalarni qayd etib, jami 912 ta korxona va tashkilot bilan yetakchilik qiladi. Bu hudud texnologik innovatsiyalar sohasida 747 ta, marketing innovatsiyalarida 84 ta, va tashkiliy innovatsiyalarda 81 ta ko'rsatkichga ega. Xorazm (446 ta) va Surxondaryo (420 ta) viloyatlari faoliyat ko'rsatgan innovatsion korxonalar soni bo'yicha yuqori natijalarni namoyon etgan.

Texnologik innovatsiyalar sohasida Qoraqalpog'iston Respublikasi (285 ta), Andijon (266 ta), va Jizzax (213 ta) viloyatlaridagi korxonalarning ulushi sezilarli bo'lib, bu hududlar innovatsion salohiyatining o'sishiga ijobiy hissa qo'shadi. Shu bilan birga, marketing innovatsiyalarining umumiy ko'rsatkichi nisbatan past bo'lib,

¹ "O'zbekistonda ilm-fan va innovatsion faoliyat jurnali", 2023-yil, 93-bet

O'zbekiston bo'ylab faqat 232 ta korxonani tashkil qiladi. Bu yo'nalishda Toshkent shahri 84 ta ko'rsatkich bilan yetakchi o'rinni egallagan bo'lsa, Qashqadaryo va Farg'ona viloyatlari mos ravishda 18 tadan marketing innovatsiyasini amalga oshirgan.

Tashkiliy innovatsiyalar bo'yicha Navoiy viloyati 38 ta natija bilan yuqori ko'rsatkichga ega bo'lib, innovatsion boshqaruv amaliyotlarini kengaytirishda yetakchi hisoblanadi. Shu bilan birga, Toshkent shahri ushbu yo'nalishda 81 ta natija bilan birinchi o'rinni saqlab qolgan.

Ushbu jadvaldan ko'rinib turibdiki, innovatsion faoliyat asosan markazlashgan bo'lib, Toshkent shahri mamlakat innovatsion ekotizimining asosiy drayveri sifatida namoyon bo'lmoqda. Texnologik innovatsiyalar boshqa turlarga qaraganda kengroq tarqalgan, marketing va tashkiliy innovatsiyalarni esa rivojlantirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar mavjud. Hududiy tahlil asosida innovatsion rivojlanish strategiyalarini belgilashda ushbu ko'rsatkichlardan foydalanish imkoniyatlari mavjud.

Tahlil natijalariga ko'ra, hududiy innovatsion rivojlanish va iqtisodiy tarmoqlarda texnologik yangiliklarni kengroq joriy etish zarurligi aniqlandi. Ayniqsa, qishloq xo'jaligi va tog'-kon sanoatidagi innovatsion faollikni oshirish orqali iqtisodiy samaradorlikni sezilarli ravishda yaxshilash imkoniyatlari mavjud. Shu bilan birga, texnologik yangiliklarni rag'batlantirish uchun huquqiy, moliyaviy va institutsional mexanizmlarni yanada takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

2-jadval

2023-yilda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha joriy qilingan texnologik innovatsiyalar (foizda)²

	Texnologik innovatsiyalar	O'z kuchi bilan (%)	Boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda (%)	Boshqa tashkilotlar tomonidan (%)
O'zbekiston Respublikasi	100	61,6	15,4	23,0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	100	60,3	19,4	20,3
Andijon	100	63,7	29,2	7,1
Buxoro	100	52,4	26,4	21,5
Jizzax	100	53,8	4,4	41,8
Qashqadaryo	100	65,4	7,8	26,8
Navoiy	100	76,0	10,2	13,8
Namangan	100	54,9	29,6	15,5
Samarqand	100	84,1	11,0	4,9

² "O'zbekistonda ilm-fan va innovatsion faoliyat jurnali", 2023-yil, 95-bet

Surxondaryo	100	63,6	5,0	31,4
Sirdaryo	100	37,8	29,6	32,6
Toshkent	100	50,0	15,3	34,7
Farg‘ona	100	56,3	16,1	27,6
Xorazm	100	40,7	8,7	50,6
Toshkent shahri	100	64,4	16,6	19,6

Yuqoridagi jadvalda O‘zbekiston hududlari bo‘yicha 2023-yilda joriy qilingan texnologik innovatsiyalarning turli shakllari tahlil qilingan. Quyida ushbu ma’lumotlarning tahlili berilgan.

O‘z kuchi bilan amalga oshirilgan innovatsiyalar mamlakat bo‘yicha o‘rtacha 61,6% ni tashkil qiladi. Bu ko‘rsatkich texnologik innovatsiyalarni o‘z ichki resurslariga tayangan holda amalga oshirayotgan hududlar salmog‘i yuqori ekanini ko‘rsatadi.

Boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilgan innovatsiyalar ulushi o‘rtacha 15,4% ni tashkil etadi. Bu ko‘rsatkich past bo‘lsa-da, ayrim hududlarda bu borada sezilarli farqlar mavjud.

Boshqa tashkilotlar tomonidan amalga oshirilgan innovatsiyalar esa o‘rtacha 23% ni tashkil etadi, bu esa texnologik innovatsiyalarning tashqi manbalarga bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi.

O‘z kuchi bilan amalga oshirilgan innovatsiyalar ulushi eng yuqori – 76%. Bu viloyatning ichki imkoniyatlaridan samarali foydalanayotganini bildiradi. 84,1% ko‘rsatkich bilan texnologik innovatsiyalarda o‘z kuchiga tayanish borasida eng yuqori natijaga ega.

Boshqa tashkilotlar tomonidan amalga oshirilgan innovatsiyalar ulushi 50,6% bilan eng yuqori ko‘rsatkichga ega. O‘z kuchi bilan amalga oshirilgan innovatsiyalar ulushi eng past – 37,8%. Andijon viloyatida Boshqa tashkilotlar tomonidan amalga oshirilgan innovatsiyalar ulushi faqat 7,1%, bu hudud tashqi manbalardan kam foydalanayotganini bildiradi. Jizzax viloyatida boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikdagi innovatsiyalar ulushi juda past – 4,4%.

O‘z kuchi bilan amalga oshirilgan innovatsiyalarni yanada rag‘batlantirish uchun texnologik infratuzilmani mustahkamlash va mahalliy kadrlarni qo‘llab-quvvatlash lozim.

Boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik darajasini oshirish zarur. Ayniqsa, Jizzax va Xorazm viloyatining tajribasidan kelib chiqib, boshqa hududlarda ham tashqi tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish kerak.

Ushbu hududlar texnologik innovatsiyalarni o‘z kuchi bilan amalga oshirishda muvaffaqiyatli tajribaga ega. Bu tajribani boshqa hududlarga tatbiq etish mumkin.

XULOSA

O'zbekistonning innovatsion kelajagi mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Innovatsiyalarni rivojlantirish orqali yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni kengaytirish, resurslardan samarali foydalanish va xalqaro maydondagi raqobatbardoshlikni oshirish mumkin. Ushbu yo'nalishda erishilgan yutuqlar va mavjud imkoniyatlar bilan bir qatorda, bir qator muammolar ham mavjud bo'lib, ular hal qilinishi zarur.

- Hududlarda ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirish uchun moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish lozim;

- Innovatsion sohalar uchun maxsus dasturlar asosida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash;

- Yoshlarni IT, texnologiya va ilmiy tadqiqotlarga qiziqtirish uchun grant va stipendiyalar ajratish;

- Korxonalarning innovatsion loyihalarga jalb etilishini rag'batlantirish uchun soliq imtiyozlari yaratish;

- Davlat-xususiy sheriklik asosida innovatsion loyihalarni amalga oshirish mexanizmlarini rivojlantirish;

- Davlat xizmatlari va biznes jarayonlarini raqamlashtirishni jadallashtirish;

- Innovatsion rivojlanishda muvaffaqiyatli bo'lgan davlatlarning tajribasini o'rganish va moslashtirish.

O'zbekistonning iqtisodiy o'sishi innovatsion rivojlanishga bevosita bog'liq. Bu, o'z navbatida, mamlakatni zamonaviy texnologiyalar markaziga aylantirishga xizmat qiladi:

- Innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash natijasida iqtisodiy samaradorlik oshib, yangi ish o'rinlari yaratiladi;

- Yoshlar va tadbirkorlarning innovatsion loyihalarga qiziqishini oshirish orqali milliy iqtisodiyotning barqarorligi ta'minlanadi;

- Hududlararo tafovutlarni kamaytirish uchun innovatsion infratuzilmani barcha viloyatlarda rivojlantirish zarur;

- Milliy innovatsion siyosatni xalqaro integratsiya bilan uyg'unlashtirish orqali O'zbekiston jahon bozorida raqobatbardosh mamlakatga aylanish imkoniyatiga ega.

Innovatsion faoliyatni moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish zarur. Davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish orqali ventchur fondlari va startap loyihalarini qo'llab-quvvatlashga e'tibor qaratish kerak [10].

Texnologiyalar va ilm-fan sohasida malakali mutaxassislarni tayyorlash uchun ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va xalqaro standartlarga moslashtirish zarur. Talabalar va yosh tadqiqotchilar uchun grantlar va stipendiyalarni kengaytirish lozim.

Innovatsion texnologiyalarni joriy etish uchun texnoparklar va innovatsion markazlar sonini ko'paytirish, mavjudlarini rivojlantirish, ular faoliyatini samarali tashkil etish kerak [11].

Elektron tijorat va axborot texnologiyalari infratuzilmasini yanada kengaytirish orqali iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarini raqamlashtirishga e'tibor qaratish lozim.

Innovatsion texnologiyalarni mamlakatga jalb qilish uchun xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlar bilan hamkorlikni kuchaytirish zarur. Global standartlarni o'zlashtirish va xalqaro ilmiy hamjamiyat bilan aloqalarni mustahkamlash muhim.

Innovatsion rivojlanish faqat Toshkent va yirik shaharlarda emas, balki mamlakatning barcha hududlarini qamrab olishga qaratilishi kerak. Hududiy texnologik markazlar va startap ekotizimlarini yaratish lozim.

Innovatsiyalarni amalga oshirishga qaratilgan loyihalar uchun soliq imtiyozlari va subsidiyalar kabi mexanizmlarni kengaytirish tavsiya etiladi.

O'zbekistonning innovatsion kelajagi mamlakat iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish, barqaror rivojlanishni ta'minlash va xalq farovonligini oshirish uchun poydevor hisoblanadi. Ushbu takliflarni amalga oshirish orqali mamlakatning global raqobatbardoshligini oshirish va innovatsion jamiyatni shakllantirish imkoniyatini yaratish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Rustamjon Qosimov. "Innovatsion taraqqiyot va uning iqtisodiy samarasi" (sahifa 45-62).
2. Akmal Saidov. "Innovatsion iqtisodiyot huquqiy asoslari" (sahifa 87-102).
3. Joseph Schumpeter. "The Theory of Economic Development" (sahifa 73-96).
4. Richard Nelson va Sidney Winter. "An Evolutionary Theory of Economic Change" (sahifa 120-145).
5. Michael Porter. "The Competitive Advantage of Nations" (sahifa 200-223).
6. Chris Freeman. "The Economics of Industrial Innovation" (sahifa 140-165).
7. Peter Drucker. "Innovation and Entrepreneurship" (sahifa 50-75).
8. Carlota Perez. "Technological Revolutions and Financial Capital" (sahifa 90-115).
9. Freeman Dyson. "The Scientist as Rebel" (sahifa 180-200).
10. Bahronova, S.B. (2024). Comparative analysis of methods for assessing the financing of innovative developments of the enterprise. Indexing, 1(1).
11. Baxshulloyevna, B.S. (2024). Korxonaning innovatsion ishlanmalarini moliyalashtirishni baholash usullarini qiyosiy tahlil qilish. tadqiqotlar. Uz, 50(1), 183-190.